

Institutimiz yoshlari Ideathon 2021 g'olibi bo'lishdi

Toshkent shahrida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan beshta tashabbusda aks etgan barcha yo'nalishlar - madaniyat-san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitobxonlik, tadbirkorlikni qamrab olgan «Toshkent Besh tashabbus harakati» yoshlar festivali bo'lib o'tdi.



Tadbir joriy yilining 20-25 may sanalariga qadar davom etdi. Ushbu festival o'ziga yosh IT-mutaxassislarini Project X ideathon loyihasida jamladi. Dastlab saralash bosqichida 64 naminantlardan faqatgina 4 loyiha final bosqichiga qabul qilindi. Ushbu ko'rik tanlovda yoshlar ekologiya, soliqni-saqlash, yoshlarning bandligini ta'minlash va ta'lim sohalari bo'yicha o'z innovatsion loyihalarini taklif etdilar. Ushbu final bosqichi ishtirokchilari o'rtasida institutimizning magistrantlari Yusupov Muhammadsodiqchon, Mutalov Alisher, Gulamova Adolat, "TJICHAB" kafedrasining assistenti Ismoilov Sarvar va doktorant Ozodov Ezozdan tashkil topgan "Defuse-IT" jamoasi o'z loyihasi bilan ishtirok etib faxrli 1 o'rini egalladi va 20 million so'm miqdoridagi pul mukofotni qo'lga kiritishdi.



"Defuse-IT" loyihasi "TJICHAB" kafedrasining "A&B engineering" pilot kafedrasida ishlab chiqilgan bo'lib, maxsus suv tozalash konstruksiyasi va avtomatik masofadan boshqarish tizimini o'z ichiga olgan. Aytib o'tishimiz joizki bizning institutimiz jamosining loyihasi Yoshlar ishlari agentligi direktori, senator Alisher Sadullayev tomonidan o'zining Instagram sahifasida alohida e'tirof etildi.



TIQXMMI matbuot xizmati